

ISSN: 2545-0573

VOYAGA YETMAGANLAR HUQUQBUZARLIKLARIGA OID IJTIMOYIY- PSIXOLOGIK MASALALAR

Chorshanbiyeva Javhar Boyit qizi

TerDUPI pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti

ARTICLE INFO.

Kalit soʻzlar:

Voyaga yetmaganlar, huquqbuzar, jinoyat, xulqiy ogʻishlar, UNICEF, alkogolizm, giyohvandlik, zamonaviy turmush tarzi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid ijtimoiy-psixologik masalalar muhokama qilinadi. Oʻquvchi eʼtibori voyaga yetmagan jinoyatchilarga nisbatan yondashuvlarga qaratiladi. Maqolada, shuningdek, taʼlim, yoshlarga oid faoliyatlar va ularga yordam berish bilan bogʻliq chora-tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha muayyan mavzular tahlil qilinadi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Bizning orzumiz belgilangan qoidalarga rioya qilinadigan, xavfsizlik va barqarorlik tuygʻusi taʼminlangan jamiyatda hayot kechirishdir. Xavfsizlik va barqarorlik esa har bir insonning shaxsiy manfaatlarini himoya qiluvchi ijtimoiy va huquqiy meʼyorlarda namoyon boʻladi.

Qadim zamonlardan beri, insonlar oʻz tanlovlariga koʻra xatti-harakatlarni amalga oshirishgan va oʻzlari tashkil etgan jamiyat qoidalarga rioya qilish yoki qilmaslik ham ularning oʻz tanlovi doirasida boʻlib kelgan. Har qanday jamiyatda ham huquqbuzarlik harakatni sodir etgan kishilar jamiyatning jazo tarzidagi reaksiyasiga duch kelishadi. Huquqbuzarlikka nisbatan qoʻllaniladigan jazo esa jinoyat sodir etilgan tarixiy davr, muayyan jamiyat, ijtimoiy qatlam yoki tabaqaga xos boʻlgan majburiy huquq tizimiga qarab, turli xil shakl va xarakterda boʻlishi mumkin. Zamonaviy idealizm muallifi Gegelning taʼkidlashicha, jazo ijtimoiy maqsadlar uchun emas, balki adolatni taʼminlash uchun xizmat qilishi kerak.

Biz ushbu maqolada voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklari va ularga nisbatan qanday jazo yoki choralar koʻrilishi kerakligi haqida soʻz yuritamiz.

Voyaga yetmaganlarning huquqbuzarligi – bu voyaga yetmagan yoki qonunda belgilangan voyaga yetmagan shaxs sifatida qonunga xilof xatti-harakatlarda ishtirok etishdir. Voyaga yetmaganlarning jinoyati turli davlatlarda turlicha yosh chegarasi bilan belgilangan boʻlib, odatda, 7 yoshdan 18 yoshgacha boʻlgan shaxslar sodir etgan jinoyat voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar sirasiga kiradi. Oʻzbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan BMT ning “Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiya”sida ham 18 yoshga toʻlmagan shaxslar bola (voyaga yetmagan) deb hisoblanishi belgilab qoʻyilgan.

Bu yoshdan kattalar sodir etgan huquqbuzarliklar esa jinoyat sifatida koʻrib chiqiladi.

Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklari turlicha koʻrinishda boʻlishi mumkin. Bularga misol qilib,

tamaki mahsulotlarini chekish, alkohol mahsulotlarini ichish, zo`ravonlik, giyohvand moddalarni iste'mol qilish, salomatlik uchun xavf tug`diradigan xatti-harakatlarni amalga oshirish, erta jinsiy faoliyatga kirishish, guruh ishtirokida jinoyat sodir etish (ko'pincha bir guruh o`smirlarning noqonuniy savdo yoki jinoyat faoliyati bilan shug`ullanishi bunga misol bo'ladi) kabilar kiradi. Ba'zi olimlar yoshlar orasida hibsga olinishlar ko'payganini aniqladilar va bu yoshlarning xulq-atvoridagi o'zgarishlardan ko'ra ko'proq sudlov jarayonidagi qoidalarning keskinligi va bag`rikenglik siyosatining yetishmasligini aks ettirishi mumkin degan xulosaga keldilar¹. Shuning uchun ham, ba'zilar bag`rikenglik siyosatini tiklovchi yondashuvlarga o'tishni taklif qilishadi.

Ko'pgina huquqbuzarliklar kelib chiqish sabablari turli omillarga borib taqaladi. Eng katta omillardan biri sifatida oilaviy holat yoki tengdoshlar bosimi kabilarni e'tirof etish mumkin. Bu ro'yxatga juda ko'plab narsalarni qo'shishimiz mumkin, misol uchun:

- Atrofagilarning salbiy ta'siri
- Oilaning jinoiy ishlarga aloqador ekanligi
- Ota-onalarning noto'g'ri tarbiya berishi
- Buzilgan oilaning ta'siri
- Qashshoqlik
- Savodsizlik
- Televizor
- Huquqiy va akademik bilimning yetishmasligi
- Alkogolizm
- Giyohvandlik
- Zamonaviy turmush tarsi

Ayni mana shunday va shunga o`xshash sabablar tufayli o`smir va yoki bolaning endi shakllanayotgan ruhiy va aqliy yaxlitligida buzilishlar, og`ishlar kuzatiladi. Mashhur psixolog Erik Erikson kishi shaxsiyati rivojlanishini bosqichlarga bo`lib chiqqan va aynan o`smirlik va yoshlik davrini(12-21) eng ziddiyatli davr sifatida e'tirof etadi.

Hozirda dunyo bo'ylab voyaga yetmaganlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarni kuzatuvchi biron-bir agentlik mavjud emas, ammo UNICEFning statistikasiga ko'ra, butun dunyo bo'ylab bir milliondan ortiq bolalar qamoqda saqlanmoqda². Ko'pgina mamlakatlar huquqbuzarlik sodir etgan yoki hibsga olingan voyaga yetmaganlar miqdorini hisobga olmaydilar, ammo ular orasida Qo'shma Shtatlar voyaga yetmaganlar jinoyati bo'yicha eng katta ko'rsatkichlarga ega³. O'zbekiston ham bu borada katta ko'rsatkichlarga ega bo'lib, unga ko'ra, O'zbekistonda sodir etiladigan barcha jinoyatlarning 31 foizi yoshlar tomonidan sodir etiladi⁴.

Moffitt (2006) tomonidan olib borilgan rivojlanish tadqiqotiga ko'ra, o'smirlik davrida ikki xil turdagi jinoyatchilar shakllanishi mumkin⁵. Birinchisi, o'smirlik yoshiga xos huquqbuzarliklar bo'lib, ular amalga oshiradigan jinoyatlar faqatgina ularning yoshi tufayli bo'ladi va ular voyaga yetgach,

¹ Gudi, Erika (Dekabr 19, 2011). The New York Times gazetasi

² Bolalar uchun adolat: Eng so'nggi chora sifatida axloq tuzatish koloniyalaridan foydalanish. Sharqiy Osiyoda innovatsion tashabbuskorlik ko'rsatish. UNICEF fondi.

³ Jahon xabarlarlari 2016: Rights Trends in Children Behind Bars". Human Rights Watch. 2015-12-22.

⁴ https://central.asia-news.com/en_GB/articles/cnmi_ca/features/2018/07/05/feature-03

⁵ Moffitt (2006). "Life course persistent versus adolescent limited antisocial behavior". In Cicchetti, D.; Cohen, D. (eds.). *Developmental Psychopathology* (2nd ed.). New York: Wiley. 75–103 sahifalar

jinoyatchi maqomidan tushishadi. Moffitning ta'kidlashicha, ko'pchilik voyaga yetmaganlar o'smirlik davrida g'ayriijtimoiy yoki huquqbuzarlik xatti-harakatlarini amalga oshirishga moyildirlar, shuning uchun ham ularning bolalik davridagi bu xatti-harakatlarni hisobga olish va shu orqali ularning shunchaki o'smirlarga xos sho'xlik bosqichidan o'tayotganligi yoki uzoq muddat davomida jinoyatchi bo'lishga moyilligini aniqlash muhimdir.

Shtaynbergning o'smirlik davridagi xulosasiga ko'ra, yolg'iz ota yoki yolg'iz ona tomonidan tarbiyalangan bolalar ota-onasi bilan birga yashaydigan bolalarga qaraganda ko'proq qashshoqlikda yashashi va huquqbuzarlikka qo'l urish ehtimoli ko'proq bo'larkan⁶. Biroq Grem va Bouling tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bolaning o'z ota yoki onasiga (yoki ota-onasiga) bo'lgan munosabati va ota-ona nazorati darajasi hisobga olinsa, yolg'iz ota yoki yolg'iz ona bilan o'sgan bolalar boshqalarga qaraganda ko'proq tajovuzkor bo'lmaydi. Ma'lum bo'lishicha, agar ota-onaning nazorati past bo'lsa, farzand ko'proq tajovuzkor bo'lishga moyil bo'lar ekan⁷. O'smirlar nazoratsiz qoldirilganda tengdoshlar guruhi tomonidan o'tkaziladigan salbiy bosim ko'payadi. Nazoratning yetishmasligi, shuningdek, bolalar va ota-onalar o'rtasidagi yomon munosabatlar bilan ham bog'liq bo'ladi. Ota-onalari bilan tez-tez ziddiyatga uchraydigan bolalar o'z faoliyatini ota-onasi bilan muhokama qilishni xohlamasligi mumkin. Ota-onasi o'rtasidagi ziddiyat ham bolaga ta'sir qiladi va yolg'iz ota yoki yolg'iz ona tomonidan tarbiyalangan bolalar bunday muammoga uchrashmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, yolg'iz ota yoki yolg'iz ona bilan yashaydiganlar nisbatan kamroq tajovuzkor bo'ladi, deyishimiz ham mumkin.

Agar ma'lum bir o'smirning huquqbuzarlik sodir etgan akasi va opasi bo'lsa va o'smir ular bilan yaxshi munosabatda bo'lsa, u o'z aka-ukalari ta'siriga tushib, huquqbuzarga aylanish ehtimoli ham katta. Yoshi kichikroq bo'lgan huquqbuzar o'z akasi yoki opasiga ta'sir qiladigan holatlar kam uchraydi. Agar aka-uka o'rtasidagi munosabat yaqin bo'lmasa, ular bir-biri bilan yaqin munosabat o'rnatishni yoki bir-biridan o'rganishni istamaydilar va bunday vaziyatlarda aka-ukalar bir-biriga ta'sir o'tkazishi holatlari kamroq uchraydi⁸. Ko'zda tutilmagan homiladorlik natijasida tug'ilgan bolalarda ham huquqbuzarlik ko'rsatish ehtimoli ko'proq. Shuningdek, ularda ona-bola munosabatlari unchalik yaxshi rivojlanmagan bo'ladi⁹.

Tengdoshlarning ta'siri ham alohida e'tibor qilinishi kerak bo'lgan omillardan biri sanaladi. Bolalikda tengdoshlari tomonidan ajratib qo'yilgan bolalar balog'atga yetmagan jinoyatchiga aylanishi ko'p kuzatiladigan holatlardandir¹⁰. Tengdoshlari tomonidan ajratib qo'yilgan bolaning ijtimoiy qobiliyatlari ham sust shakllanadi va natijada anti-ijtimoiy guruhlar bunday yoshlarni jalb qilishlari oson kechadi¹¹.

Voyaga yetmaganlarning jinsi ham huquqbuzarlik xatti-harakatlariga ta'sir qiladigan omil hisoblanadi. Sodir etilgan jinoyatlar turi qizlar va o'gil bolalar orasida turlichaligi bilan farqlanadi. Buning asosiy sabablaridan biri og'il bolalarning qizlardan ko'ra ko'proq ijtimoiylashish qobiliyati va imkoniyatiga ega ekanligi. Umumiy qilib aytganda, o'gil bolalarning jinoyat sodir etish holatlari qizlarnikiga

⁶ Steinberg, L. (2008). *Adolescence* (8th ed.). New York: McGraw-Hill

⁷ Graham, J. & Bowling, B. (1995). *Young People and Crime*, Home Office Research Study No. 145, London: Home Office.

⁸ Bartol, Curt & Bartol, Anne (2009). *Juvenile Delinquency and Antisocial Behavior: A Developmental Perspective*, 3rd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.

⁹ Monea J, Thomas A (June 2011). "Unintended pregnancy and taxpayer spending". *Perspectives on Sexual and Reproductive Health*

¹⁰ Bartol, Curt & Bartol, Anne (2009). *Juvenile Delinquency and Antisocial Behavior: A Developmental Perspective*, 3rd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.

¹¹ Bartol, Curt & Bartol, Anne (2009). *Juvenile Delinquency and Antisocial Behavior: A Developmental Perspective*, 3rd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.

qaraganda ko'proq ekanligi aniq¹². Barcha huquqbuzarliklar bo'yicha hisoblaydigan bo'lsak, qizlar o'gil bolalarga qaraganda huquqbuzarlik sodir etishda kamroq qatnashadilar¹³. Qizlar nafaqat kamroq huquqbuzarlik sodir etadilar, balki ular odatda unchalik jiddiy bo'lmagan jinoyatlarga qo'l uradilar¹⁴.

Jinoyat qilish ehtimolini oshiradigan individual psixologik yoki xulq-atvoriga oid omillarga past intellekt, ta'sirchanlikni yoki kechiktirilga qoniqish va ehtiyojlar, tajovuzkorlik, empatiyaning yo'qligi va bezovtalik kabilar kiradi¹⁵. Bolalik va o'smirlilik davrida kuzatilishi mumkin bo'lgan boshqa omillar esa tajovuzkorlik yoki vayronkor xatti-harakatlar, nutq shakllanishining kechikishi yoki nutqdagi nuqsonlar, hissiy nazoratning yetishmasligi (o'z g'azabini nazorat qilishni bilmaslik) va hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik kabillardir¹⁶. Ta'sirchanlik yoki qiziqqonlik bolaning huquqbuzar bo'lishiga olib keladigan asosiy shaxsiyat belgilaridan biri sifatida ko'riladi. Biroq shaxsning bu jihatlari "Miyadagi ijro etuvchi funksiyalarga xos nuqsonlar"¹⁷ natijasimi yoki ota-ona yoki boshqa ijtimoiy omillar¹⁸ natijasimi, bunisi aniq emas. Har qanday holatda ham, o'smirlarning rivojlanishini o'rgangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar xavf-xatarga va tavakkal qilishga ko'proq moyil bo'lib, bu o'smirlar o'rtasidagi huquqbuzarliklarning nomutanosib tarzda haddan ziyod yuqori ekanligini tushuntirishi mumkin¹⁹.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlarga ko'pincha turli xil kasalliklar tashxisi qo'yiladi. Taxminan olti-o'n olti foiz o'gil bolalar va ikki-to'qqiz foiz qiz bolalarda xulq-atvor buzilishlari kuzatiladi. Bular tajovuzkor bo'lmagan xarakterdagi o'zgarishlardan tortib, ko'pincha psixopatlar orasida tashxis qo'yiladigan anti-ijtimoiy shaxsiyat buzilishlarigacha bo'lishi mumkin²⁰. Xulq-atvor buzilishi bolalik davrida rivojlanishi va keyinchalik o'smirlilik davrida o'zini namoyon qilishi mumkin²¹.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklariga oid ijtimoiy-psixologik masalalarni ko'rib chiqish va o'rganish orqali aynan shu davr oraliq`ida muayyan bir turmush tarzini tanlashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'smirlarga o'z yo'lini topish uchun yordam berish mumkin. Va bu kelajakda ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan har qanday turdagi jinoyatlarning oldini olishga, jamiyatimizdagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

¹² Daigle, Leah E.; Cullen, Francis T.; Wright, John Paul (July 2007). "Gender Differences in the Predictors of Juvenile Delinquency". *Youth Violence and Juvenile Justice*. **5** (3): 254–286 sahifalar.

¹³ Junger-Tas, Josine; Ribeaud, Denis; Cruyff, Maarten J. L. F. (July 2004). "Juvenile Delinquency and Gender". *European Journal of Criminology*. **1** (3): 333–375 sahifalar

¹⁴ Steketee, Majone; Junger, Marianne; Junger-Tas, Josine (2013-01-20). "Sex Differences in the Predictors of Juvenile Delinquency". *Journal of Contemporary Criminal Justice*.

¹⁵ Farrington, D. P. (2002). "Developmental criminology and risk-focused prevention". In Maguire, M.; et al. (eds.). *The Oxford Handbook of Criminology* (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press

¹⁶ Bartol, Curt & Bartol, Anne (2009). *Juvenile Delinquency and Antisocial Behavior: A Developmental Perspective*, 3rd ed. Upper Saddle River, NJ: Pearson Prentice Hall.

¹⁷ Farrington, D. P. (2002). "Developmental criminology and risk-focused prevention". In Maguire, M.; et al. (eds.). *The Oxford Handbook of Criminology* (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press.

¹⁸ Graham, J. & Bowling, B. (1995). *Young People and Crime*, Home Office Research Study No. 145, London: Home Office.

¹⁹ Steinberg, L. (2008). *Adolescence* (8th ed.). New York: McGraw-Hill.

²⁰ Hare (1991). *The Hare Psychopathy Checklist Revised*. Toronto, Ontario: Multi-Health Systems.

²¹ Holmes, S. E.; James, R. S.; Javad, K. (2001). "Risk Factors in Childhood that Lead to the Development of Conduct Disorder and Antisocial Personality Disorder". *Child Psychiatry and Human Development*. **31**